

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDAGI TA'LIMYIY JARAYONNI TEATRLASHTIRILGAN O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Salimova Dilmira Farxodovna, Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi

Alfraganus universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, PhD
Pedagogika kafedrası 1-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ta'lim — tarbiyasini rivojlantirishda teatrlashtirilgan o'yinlarning g'oyaviy mazmuni keltirilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda ta'limiy faoliyatlariga teatr turlaridan foydalanish imkoniyati va zarurligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, o'yin, mehnat, tarbiyachi, teatr, rivojlantiruvchi muhit, ezgulik, milliy qadriyat, ertak, hikoya

Аннотация: В статье раскрывается идейное содержание театрализованных игр в развитии воспитания детей в дошкольных образовательных организациях. Показана возможность и необходимость использования театрализованных видов в образовательной деятельности в центрах развития детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: школьный возраст, игра, труд, воспитатель, театр, развивающая среда, добро, национальная ценность, сказка, рассказ.

Abstract: This article explores the conceptual implications of theatrical games in the development of children's education in preschool educational institutions. The possibility and necessity of using theatrical forms in educational activities at preschool development centers are demonstrated.

Key words: school age, play, work, teacher, theater, development environment, goodness, national value, fairy tale, story.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim -tarbiyasida teatrlashtirilgan tomoshalar vositasidan samarali foydalanish- bolalarning iqtidori, ob'yektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart — sharoitni yaratish bilan yanada ahamiyatlidir. Bolalarni milliy ma'daniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining maqsadidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonunida ham "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" deb ta'kidlangan.[1]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini ko'p qirrali deb hisoblash mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, bolalarda ta'lim turlarini shakllantirishda teatrlashtirilgan tomoshalar –qo'g'irchoq, stol teatrlari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Teatrlashtirilgan tomoshalar bolalar bilan bevosita muloqatda bo'lish, ularning "tili"da fikr almashish, maxsus ifoda vositalariga egaligi, bolalarni ishontirish, voqea-hodisalarga nisbatan his — tuyg'ularini bildira olish xususiyatiga ko'ra pedagogik ahamiyatga ega.

Milliy iftixorimiz madaniyatimizning bobokaloni hazrati Alisher Navoiy va u bilan bir davrda yashagan allomalarning asarlarini o'qir ekanmiz, unda Hazrati Navoiy o'z zamonasidagi ayrim hodisalar haqida, axloq, odob, tarbiya, xulq-atvor, odamgarchilik, yaxshilik to'g'risida fikr

yuritar ekan, ba'zan san'at olamidan olingan ajoyib o'xshatishlar ishlatadiki, ularni bebaho material ekaniga shubha yo'q.

Bunda Navoiy demoqchiki, falak chodiridan ming surat ko'rsatuvchi qovurchoqchi kabi hiylagardir; chodirini mixu sutunsiz tikib, shaklini davra qilib yasaydi va unda jilvagarlar anjumani bo'lib har tomonda yuzlab kumushdan qo'g'irchoqlar o'ynaydi. Buncha kumush rang qo'g'irchoq chiqarib o'ynatish- tamom el uchun firibu nayrangdir. She'riyat mulkinging sultoni, buyuk o'zbek mutaffakir, olim Alisher Navoiyning odob-axloq, ta'lim — tarbiyaga oid ilg'or qarashlari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Uning ijodidagi falsafiy-axloqiy fikrlar, hikmatlar va o'gitlar o'zining muhimligi va dolzarbligi jihatdan umuminsoniy ahamiyatga ega. Navoiy barcha insonlarni ezgulikka, o'zaro hamjihat bo'lishga, nasil-nasbidan qat'iy nazar mehr-oqibatli bo'lishga, milliy urf – odatlarga sadoqatli bo'lishga da'vat etgan.

Ushbu tahlillardan ko'rinib turibdiki, ezgulik orqali axloqiy sifatlar yuzaga keladi. Ezgulik–majmuaviy tushuncha bo'lib, u axloqiylikning, oliy insoniy qadriyatning tayanchi sanaladi. “Ezgulik”– bu shaxsning axloqiy sifati bo'lib, u boshqa kishining beg'araz holda biror-bir kishi uchun nimadir foydali narsani amalga oshirishi va o'z harakatlaridan qoniqish hissiga yo'naltirilganlikni aks ettiradi.[3] Mazkur vaziyatni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga ta'sir ko'rsatishning samarali yo'li deb qarash mumkin.

Tarbiyachi kelajak poydevori bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish, ularni har tomonlama ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalashdek muhim va ma'suliyatli vazifani bajarar ekan, avvalo uning o'zi tarbiyalangan bo'lishi, yuksak odob-axloqqa ega bo'lishi, bolalarni tarbiyalash sifati uchun jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini chuqur anglashi lozim.

Kerak bo'lganda tarbiyachilarning o'zlari ham shu bolalardek yurishi, gapirishi, o'ynashi ham bolalar bilan til topishishida yaxshi samara beradi.

Har bir teatrlashtirilgan tomoshalar suhbatlar orqali, ularning tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyatini bolalarga chuqur anglatish, uning olib borish jarayoniga, natijalariga jiddiy e'tibor berilsa kutilgan samarani berishi mumkin.

Shunday ekan, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi markazlardagi ta'limiy jarayonni yanada takomillashtirish, ularning milliy qadriyatlar, an'analarimiz haqida yanada teran mushohada yuritishlari maqsadida turli ertaklar, hikoyalar o'qib berish, asar qahramonlari orqali ularda insoniy fazilatlarini shakllantirish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta'lim to'g'risidagi” O'RQ 637-son qonuni 2-bob. 8-modda
2. Ilk qadam davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashri) 2022-yil
3. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
4. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23> Published Date: 2024-02-29<http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548>
5. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y